



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)
2023



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati.....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari...	11
To'liq RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'naviy tafakkurini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi	29
У.И. МУПТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosabat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
 MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	82
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi.....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishlash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishlash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni.....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi	115
Mavjuda NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiy o'yinlar texnologiyasi	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	125

SHAXSLARARO MUNOSOBAT VA UNING MOHIYATI

Maqolada shaxslararo munosobat, uning mohiyati va xillari, shaxslararo munosabatlar haqida buyuk allomalarning qarashlari haqida so'z boradi. Shaxsning o'z-o'ziga, olamga, jonli va jonsiz tabiatga, jamiyatga, oila a'zolariga, do'stlariga, kasbdoshlariga, ijtimoiy guruhlariga, qadriyatlarga nisbatan insoniy munosabatlarida uning tarbiyalanganlik darajasi, hayotiy ko'nikmalarga ega ekanligining ahamiyati nechog'li muhimligi ajdodlar qarashlari, insonning shaxs sifatida rivojlanishi shaxslararo munosabatlar jarayonida ro'y berishi nuqtai-nazaridan "shaxs" va "munosobat" kategoriyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosobat, jonli va jonsiz tabiat, jamiyat, ijtimoiy guruh, qadriyat, hayotiy ko'nikmalar, ajdodlar merosi, shaxs, munosobat kategoriyalari.

В статье говорится о межличностных отношениях, их природе и видах, взглядах великих ученых на межличностные отношения. Насколько важен уровень образования и жизненных навыков человека в отношениях человека с самим собой, миром, живой и неживой природой, обществом, членами семьи, друзьями, коллегами, социальными группами, ценностями, взглядами предков, развитием человек как личность возникает в процессе межличностных отношений «человек» и «отношения» категории были проанализированы с точки зрения придания.

Ключевые слова: межличностные отношения, живая и неживая природа, общество, социальная группа, ценность, жизненные навыки, родовое наследие, личность, категории отношений.

The article talks about interpersonal relationship, its nature and types, views of great scientists about interpersonal relationships. How important is the level of education and life skills of a person in human relationships with himself, the world, animate and inanimate nature, society, family members, friends, colleagues, social groups, values, the views of ancestors, the development of a person as a person occurs in the process of interpersonal relationships "person" and "relationship" categories were analyzed from the point of view of giving.

Keywords: interpersonal relationship, animate and inanimate nature, society, social group, value, life skills, ancestral heritage, personality, relationship categories.

Inson munosib sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdiridagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda jahon miqyosida inson ijtimoiy huquq va erkinliklariga, shaxslararo munosabatlarga, madaniyat va ma'naviyat kabi tushunchalar bilan bog'liq reyting va standartlarga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda.

Yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rta tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shu bois yurtimizda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi, jahon talablariga javob bera oladigan kadr bo'lib yetishishi hamda zarur hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu talablarni

bajarishda ta'lim-tarbiya jarayonlarida shaxslararo munosabatlarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Har inson bir olam. Insonning eng avvalo o'z-o'ziga munosobati; insonning olamga, jonli va jonsiz tabiatga munosobati; insonning jamiyatga; insonning oila a'zolariga, o'z do'stlariga, kasbdoshlariga-qisqasi ijtimoiy guruhlariga munosobati mavjud.

Yunon donishmandlaridan Xilonning (E. o. VI asr 620 yil Iso Masih ug'ilishigacha) "Tilingni aqlingdan ustunligiga yo'l qo'yma" hamda Biantning (e.o. VI asrlar) "O'z o'rnida gapir" degan oqilona iboralari oltinga teng iboralar bo'lib shaxslararo munosobatda har doim zaruriyat sanaladi.

2500 yil ilgari Budda dinamik falsafani shakllantirdi, zamonaviy fanlar ixtirosi bularni tasdiqladi. Budda oltin oraliqni tasdiqlaydi. Budda ta'limotida har tomonlama mukammal axloqqa erishishning sakkiz pog'onali yo'li mavjud. Sakkiz

64 pog'onali yo'l quyidagilarni o'z ichiga oladi: to'g'ri qarashlar, to'g'ri istak-intilish, to'g'ri nutq, to'g'ri axloq, to'g'ri turmush tarzi, fikrlarning to'g'ri yo'nalganligi, va to'g'ri zavqlanish (jazava). "To'g'ri fikr", "to'g'ri istak", "to'g'ri nutq" degan iboralarining o'zidanoq gap inson hatti-harakatidagi muayyan aniq qoidalarga amal qilishi, istaklarini oqilona chegarasini bilishi; keraksiz istaklardan voz kecha olishi qisqa qilib aytganda, axloqiy me'yorlar haqida fikr borayotganini anglashi mumkin. Yolg'onchilikdan saqlanish, yengiltak hatti-harakatlar oldini oladi, to'g'ri fikrlash mezonini me'yorli harakatni kelishiga sabab bo'ladi. Inson ruhiy olamida hech bir inson darrov ma'naviy me'yorga erisha olmaydi.

Avesto – O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron va Ozarbayjon xalqlarining qadimiy madaniyat haqidagi qimmatbaho g'oyalarni saqlagach diniy falsafiy manbadir. Avestaning asoschisi Zardusht (Zardushtri) taxminan, miloddan avval 570-yilda tug'ilgan. Zardusht ta'limoti ushbu kitobda jamlangan.

Olam ikkiga ajralib qaralgan: birinchisi – moddiy, tabiiy ob'ktiv olam, ikkinchisi – ruhiy, tasavvur etishimizga ko'ra mavjud olam. Lekin asarda asosan moddiy, yerdagi olamga ko'proq ahamiyat berilgan.

Zardushtlik ta'limoti to'g'rilik va adolatli yashash va ahloqiy unsurlarga asoslanadi. Avestoning barcha qasidalaridan bir "qizil ip" o'tadi. Bu qizil ip – "Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal" va "haqiqat – oliy sharofatdir".

Avestada yozilishicha: "1-yasht, Xurmuzd yasht" Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, egu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jami' ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlanaman, jumla yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman.

Keltirurman sizga, Baxayot avliyolar, fikrat va kalomim, omol va qudratim, "tirikligim vujudi ila" olqishim va sog'inchim.

Bu iboradagi asosiy mohiyat: inson tirik ekan, hamisha ezgu fikr, ya'ni hayollarda, qalbida doimo pokiza niyatlar, rejalar bilan yashashi kerak. Inson dilida yaxshi fikr, ezgu fikr bo'lishi bilan shu narsani o'zi uning tilida ham, nutqida ham, iboralarida ham bo'lishi kerak. Qalbida, tilida yaxshi, ezgu tilaklar, niyatlar, iboralar bor insonning amaliy hayotida ham, xar bir qilayotgan vazifasida, u qandayligidan, darajasidan qat'iy nazar ishida, faoliyatida ham ezgulik zarurdir. Demak, insonning yaxlit bir tizim deb qarasa, insonni o'zida bu uch narsa: ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal – uch asos birlik, yagonalikni tashkil etadi, bu uch narsa bir bo'lib insonni qamrab o'raladi. Demak, Zardushtlik ta'limoti insonni doimo yaxshi fikr, latif so'z, yaxshi amallar qilishga targ'ib etadi. Faqirlarga mehribonlik qilish,

musofirparvarlik, kishiga isnod keltiruvchi narsalardan voz kechish, hayvonlarni o'ldirish, dunyo lazpatlariga berilish gunoh sanaladi.

Insonning ichki olamidagi ezgulik uning faoliyatida ham aks etilishi shart. Ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amalni chizma orqali izohlamochi bo'lsak, u quyidagi shaklni oladi.

Ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal – aniq sifat, ammo bu uchchala aniq sifat bir-biri bilan ma'lum mutanosiblikda bo'lib, bir yaxlit asosga ega, ularni ajratish xato, ulardan biri ajralib ketsa mohiyat yo'qoladi. Bu uch narsaning yaxlitligi insonda mujassamlashgandagina, inson haqiqiy zardusht bo'la oladi, haqiqiy barkamol inson sanaladi.

Qur'oni Karim asl maqsad-e'tibori bilan xar bir kishini ma'naviy barkamol, pokiza, iymonli (vijdonli) qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan. Insonlar bir-biri bilan muloyim, bosiq, mehrli munosobatda bo'lishlari deyarli barcha oyatlarda ko'rsatilgan. Faqatgina muloyim mehrli muomalagina emas, balki "tovushingizni eshakday balandlatmang" degan ibora ham uchraydi. Hatto Kur'on tilovat etilayotgan tovushni haddan ortiq balandmaslik bir-necha bor uqtirilgan.

Hammaga ma'lumki, birgina "madaniyat" kategoriyasiga 500 dan ortiq tasnif bor. Shunday tasniflardan biri: "Madaniyat kishining insoniy fazilatlari va ijodiy xislatlarining ifodasi. Ushbu belgilar negizida inson-jamiat-tabiati tizimi o'rtasidagi munosabatlar yotadi. Bu munosabatlar tizimida esa inson faoliyati asosiy ko'rsatgich hisoblanadi". Madaniyat insonni inson qiladi, madaniyatgina insonni kun sayin ongli, insonparvar, axloqli bo'lishiga boshqacha iborala bila aytganda, uning mavjud turga xos mohiyatini shakllantiradi. Nemis faylasufi I.G.Gerderning uqtirishicha, biz "butun umr davomida mashq qilish" orqaligina inson darajasigacha tarbiyalanamiz. Yangi kitob o'qiymiz, kitob qahramonlaridan ijobiy xislarni o'rganamiz. Ta'lim-tarbiya, o'z ustida ishlash orqali tilni, jamiyatda mavjud bo'lgan odatlar, me'yorlar, axloq va faoliyat usullarini o'zlashtirib, inson madaniyatini o'ziga singdiradi, unda ishtirok etadi, so'ng yaratish jarayoniga qo'shiladi. Yana yangilik yaratadi, yana u yangilikni mukammallashtiradi. Aynan mana shu yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, takomiliga yetish istagi faoliyati ya'ni madaniyatda ishtirok etish darajasi uning inson bo'lib kamol topishi ko'lamini, ya'ni insondagi insoniylik darajasini, me'yorini belgilaydi. Me'yor esa muayyan ko'lam, chegara bo'lib, u o'zgaruvchan, qotib qolgan emas. Ayniqsa u ijtimoiy borliqda juda o'zgaruvchan bo'lib, ehtiyoj tug'ilganda bu chegarani ko'tarish, uning hajmini oshirish mumkin, yuqorida Gerder aytganidek, bu "mashq"

insonning butun hayoti davomida cho'ziladi.

Shirin so'z, shirin muomala hammaga yoqadi. Ammo shunday kasblar borki, ularning kundalik shirin so'zi nafasdek, har lahza zaruriyatdir. Bu kasb egalari shifokorlardir. Shu sababli buxorolik jahonga mashhur alloma Ibn Sino bunday deb yozadilar:

“Shifokorning avval ko'zi shifodir,
Qolaversa ochiq yuzi shifodir.
Shifo uchun dardga darmondan
Ikki og'iz shirin so'zi shifodir.”

Bu misralar orqali Ibn Sino faqatgina shirin so'zgina emas, balki inson ko'zidagi mehr, samimiyat ham bemorga ta'sir qilishini anglash unchalik qiyin emas.

Ibn Sinoning ma'naviy merosidagi kator muammolar tizimida ilm va axloq - odob alokadorligi, shaxslararo munosabatlar masalasi alohida o'rin tutadi. Uning

- 1) “Burch haqida risola”,
- 2) “Axloq haqida risola”,
- 3) “Insof haqida risola”,
- 4) “Ishk haqida risola”,

5) “Nafs haqida risola” kabi asarlarida fan va axloqning o'zaro alokadorligi va bir-biriga ta'sir etish darajalari, insoniy munosabatlar keng yoritilgan.

Ibn Sinoning fikricha, tangri insonga shunday kuch in'om etdiki, u orkali ezgulikni (“xayr”) yomonlikdan /”sharr”/ aqliy kamolot, yetuklikni /”rashod”/ yolg'on-yashik, adashuvdan /”gumroxii”/ fark eta olish imkoniyatini paydo qildi.

Ilm va axloq alokadorligi muammosi Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” risolasida o'zining bir muncha to'lik ifodasini topgan, desak xato kilmaymiz. Risola mutafakkirning 18 jildlik mashhur “Ash- shifo” asarining tarkibi qismini tashkil etadi. Asar arab tilidan fors tiliga eronlik olim Muhammad Najmiy Zanjoni tomonidan tarjima kilinib 1939-yilda Texronda chop etildi.

Ushbu risolada inson tabiati azaldan axloqiy yoki axloqsiz bo'lmaydi degan g'oya muxim ahamiyat kasb etadi. Odamlar aslida tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydi bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin – asta shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar, an'analar, ta'lim – tarbiya ta'sirida shaqllanadi deyilgan.

Ibn Sino shunday so'zlar bilan murojaat qiladi. “Ey, birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'lib, haqiqatni ochinglar. Shunday qilinglarki, birodarlarimiz sizlarda o'zi bilmagan ayrim narsalarni o'rgansin”.

“Insonlar olamda yashash odoblari bilan bir-birlaridan farq qiladilar” - deb yozadi professor H.Y.Salomova hamda Jaloliddin Rumi misralaridan namunalari keltiradi: “Ey Xudo ber

bizga andoq tuyg'uni, Farq etaylik egri birla to'g'rini.” Bir inson boshqa bir inson bilan muomala qilayotgan payt, o'z suhbatdoshining ichki hamda tashqi me'yori, haddini bilib, unga mos muomala qilishi lozim, deb uqtiradi Mavlono. “So'zlaguvchi har qancha olim va balog'atli notiq bo'lsin, vaqtiki eshituvchining fahmi, saviyasi pastroq bo'lsa, ularning suhbatdan foyda olishlari uchun, So'zlaguvchi o'zining yuqori saviyadagi suhbatini pastlatishga majbur bo'ladi. Zero, so'z, eshituvchining fahmi, saviyasiga ko'ra so'zlanishi lozim. Xuddi chevar, libosni bir insonning bo'yi-basti (o'lchami)ga qarab tikganidek!” Demak, har bir inson bilan muomalada, suhbatda uning haddi doirasida so'zlamog' lozim.

Tikuvchi bir insonga ko'ylak tikayotgan payt insonning bo'y-bastini o'lchamini oladi. Oradan sal vaqt o'tib o'sha inson yana tikuvchi yoniga kelsa, u yana insonning bo'y-qomatini o'lchamini olishga kirishadi. Mavlono Rumiyning yuqorida keltirilgan fikrlarini tahlil etsak, quyidagi ikki xulosaga kelamiz:

Birinchidan, So'zlaguvchi va eshituvchining bilim, tafakkur, mushohada ko'rsatgichlari bir xil emas, demak. So'zlaguvchi yuqoridagi suhbatini eshituvchiga moslashtirib so'zlamog'i shart;

Ikkinchidan, so'zlaguvchi va eshituvchining vaqt o'tishi bilan bilim, tafakkur, fikr, mushohada ko'rsatgichlarini o'zgarganligini inobatga olmog'i kerak. Eshituvchi ham o'z bilim, ongini, tafakkurini o'stirishga, kamolga yetkazishga harakat qilib tinmay aqliy yoxud jismoniy mehnat qilgan, mantiqiy asarlarni o'qib tahlil yetgan bo'lishi mumkin. So'zlaguvchi buni inobatga olishi shart. Hayotda bu holni aksi ham ro'y berishi mumkin.

Ma'naviy borliqdagina emas, mazkur fikr inson moddiy olamida ham mavjuddir. Biz o'zimizni yoshlikdagi jo'shqinligimizga tayanib, tanamiz quvvatidan ortiqcha og'irlikdagi narsalarni ko'tarsak, albatta u salbiy oqibatlariga olib boradi.

Haqiqatdan ham, muomala jarayonida bir inson sening fikringni to'g'ri tushunadi, tez anglaydi, tez “hazm” qiladi. Ikkinchi bir inson inson uchun Sen aytgan fikr ongiga, tafakkuriga tez yetib bormaydi.

“Ey, Inson! Fikr qilsang, bu olam bir hibsxona. Muroding najot topmoq, ruhiy halovat va hurriyat bo'lsa, haddidan (me'yoridan – D.N.) o'tuvchi, imkondan tashqari bo'lgan orzu havaslarga, nafs qutqulariga aldanma. Iymon yo'li ikki dunyo saodati va ozodligiga yetkazuvchi kuchli asbobdir.”- bu misralar orqali Mavlono, birinchidan insonlarni haddga muvofiq yashashga da'vat etsa, ikkinchi tomondan, “iymon yo'li” deganda, hadd doirasida yashashni, me'yorga amal qilib yashashni inobatga oladi hamda aynan mana

66 shu hadd chegaralaridan chiqmagan insongina ikki dunyo saodatiga, ozodligiga erishadi, deb biladi. **Vaqt insonga beriladigan aniqrog'i atigi bir marta beriladigan imkoniyatdir. Qur'oni karimda bunday xabar berilgan: "ajallari kelgan vaqtida biror soatga ketga ham oldinga ham sura olmaslar"** (A'rof surasi, 34-oyat). Inson umrining har bir daqiqasini foydali, savobli, o'zgalarga yaxshilik, tabiatni asrab, bog'larni ko'paytirish bilan o'tkazish nazarda olingan. **Inson umri cheklangan, uni oqilona o'tkazishga da'vat etilgan:** "Ey odam bolasi, sen kunlardan iboratsan, har bir kun o'tganda sening ham bir qisming ketgan bo'ladi. O'zing bilmagan holatda sening bir qisming o'tib ketibdimi, demak, butunlay ketishingga ham fursat oz qolibdi".

Aslida insonning shaxs sifatida rivojlanishi shaxslararo munosabatlar jarayonida ro'y beradi. Shaxs faqat shaxslararo munosabatlar sharoitida namoyon bo'ladi. Shu bois biz ikki kategoriya "shaxs" va "munosobat" kategoriyalarini oydinlashtirishni lozim deb bildik.

Shaxs – bu jamiyatda yashovchi va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan belgilar, xislatlar va sifatlar tizimiga ega bo'lgan insondir. "Jahon falsafasi qomusi" kitobida "Shaxs – ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan odamni anglatuvchi tushuncha" degan tasnif berilgan. Bizning fikrimizcha barcha shaxslar haqidagi tasniflarni bir maxraj ostiga yig'ish mumkin. Haqiqatdan ham shaxsda biologik, fiziologik, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, estetik fazilatlar integratsiyalashadi, bir butunlik, yaxlitlikka aylanadi, bu bir butunlikda munosabatlar tizimi ham sintezlashadi.

1. Mashhur fransuz ma'rifatparvari Klod Andrian Gelvetsiya (1715-1771) o'zining 1770-yilda yozib tugatgan "Inson to'g'risida" nomli (mazkur asar uning vafotidan keyin 1772-yilda chop etildi) asarida "Inson – muhitning mahsuli" insonning qarashlari, axloqiy fazilatlar, nuqsonlari u yashab turgan ijtimoiy muhitga bog'liqligini ko'rsatdi.

2. Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar:

3. Oilaviy-biologik-genetik omil;

4. Tabiiy muhit;

5. Madaniy muhit;

6. Ijtimoiy tajriba;

7. Insonlar bilan munosobat juda katta rol o'ynaydi.

8. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi shaxslararo munosabatlar jarayonida yuz beradi va bu munosabatlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

9. Shaxslararo munosabatlar quyidagi shakllarda bo'ladi:

10. Oiladagi munosabatlar;

11. Ishga aloqador munosabatlar;

12. Majburiy munosabatlar;

13. Erkin munosabatlar va h.

14. Bu munosabatlarning o'zi ham bir qancha partitiv munosabatlarni o'z ichiga oladi. Masalan oilaviy munosabatlar olsak, ular o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

15. Er va xotin o'rtasidagi munosabatlar;

16. Farzand va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar;

17. Farzandlar orasidagi munosabatlar;

18. Oiladagi bir necha avlod vakillari orasidagi munosabatlar (Bobo, buvi, nabira, evara, amma, xola va h.);

19. Oilalarning biri-biri bilan munosobati;

Shaxsiy munosabatlar ko'proq kishilarni o'zaro yaqinlashtiradi yoki aksincha uzoqlashtiradi, yoqtirish va yoqtirmaslikni, yaqinlik va begonalikni keltirib chiqaradigan his-tuyg'ular ta'sirida tarkib topadi. Shaxsiy munosabatlar oilaviy, do'stona, o'rtoqlarcha, muhabbat, do'stlik yoki nafratga, soxtalikka oid bo'lishi mumkin.

Yoshga qarab muomala turlicha bo'lishi lozim. Xonadonda qariyalarning yashashi alohida ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi "Qariyali uyda qo'y ham, bo'ri ham omon", zero qariyalar oiladagi barcha munosabatlarni "me'yorga keltiruvchi" buyuk kuch egalardirlar. Boshqacha iboralar bilan aytganda aynan oiladagi keksalar xonadandagi tinchlikni, xotirjamlikni bir me'yorda ushlab turuvchi vositadir.

Masalan, yoshi ulug' insonlar ko'pincha shirin so'zning gadoyi bo'lishadi.

Shaxslararo munosobatda falsafadagi me'yorning ahamiyati juda muhim ahamiyatga ega. "Mehr va nafratda me'yorni biling. Kimlardir mehrni haddan orttirib yuboradi, kimlardir nafratni. Har ikki holatda ham baribir, halok bo'lishadi. Shunday ekan, me'yorni belgilashda adashmang", - deb ta'kidlaydi Jaloliddin Rumi.

Markaziy Osiyoda eng ko'p qurilgan arxitektura inshootlari orasida o'quv maskanlarining juda ko'pligi boshqa mamlakatlar qurilishidan ajralib turuvchi eng asosiy o'ziga xoslikdir. Birgina Buxoroning o'zida Arslon Burg'oxon hukmronligi davrida 318 ta madrasa bo'lgan. Bu madrasalarda esa 12 000 ta talaba tahsil olishgan. Buxoro – ilmlar, bilimlar makoni;

Obidalaridagi yozuvlar, rasmlar juda serma'no. Diqqat qiling, ko'pgina Sharq obidalar peshtoqida arslon, kiyik rasmlari bo'lsa, madrasalar pastki joyiga asalari uyasiidagi oltiburchakli geometrik shakl berilgan.

Xo'sh, bularning ma'nosi nima?

Kiyik ilm, kiyik ovlovchi ovchi esa ilmga intiluvchi ilmi tolib, sher ramzi - ilmni sipqorgan

kuchli, aqlli inson; yana bir donishmand e'tirof etishicha, sher iymon, diyonat ramzi. Asal ari uyasining ramziy ma'nosi uchburchak, to'rtburchakka va hatto aylana shakliga oltiburchakli uyadagi kabi ko'p asal sig'maydi. Binodagi bu rasmda asal eng ko'p sig'adigan oltiburchak; ilm, aynan eng ko'p olinadigan ilm ko'zda tutilmoqda. Ahli tolib madrasaga kirdimi, albatta diniy va dunyoviy ilmlardan ko'proq olishi, o'zini qalbini ilmga to'yintirishiga ishora qilinmoqda.

Obidalaridagi yozuvlar ham bino peshtoqi va devordagi chizmalarning mantiqiy davomi sifatida tajjalli etishi, ajralib turuvchi xos xususiyatning biridir. Bunga dalil sifatida Buxoro va G'ijduvonda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalar yorqin misol bo'la oladi.

Me'mor Ismoil ibn Toxir ibn Maxmud Isfahoniy Mirzo Ulug'bek buyutmasi bilan 1417-1419-yilda Buxoroda madrasa qurgan. Madrasaning yog'och darvozasiga: **"Talabul ilmi farizatun alo kulli muslimin va muslimotin"**, ya'ni **"Ilm olishga intilmoq har bir muslim va muslima uchun farzdir"** degan iborani yozdigan. Ulug'bekka ehtiromi baland bo'lgan boshqa ibr yosh usta darvozaning temir halqasiga hukmdor Mirzo Uluhbek ruhiga xos: **"Ilm durdonalaridan bahramand bo'lgan odamlarga Olloh taolo rahmat eshigini ochgay"** degan so'zlarni yozib qo'ygan. Bu yozuvlar shundan dalolat beradiki, islomning haqiqiy aqidasi ko'ra ilmi inson ulug'lanadi, ilmga intilish xotin-qizlar uchun farzdir, ilmi insonlarni ulug'lash, e'zozlash ularni ilm olishlari uchun sharoit yaratib berish lozim, deb hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda 1419-yilda bitkazilgan Buxorodagi Madrasada (hozirgi kunda bu madrasa Ulug'bek madrasasi deb yuritiladi – (S.X.,T.A.) Ulug'bek to'xtalib, talabalarga va madrasada ishlaydigan fidoyi ustozlarga har haftada beriladigan maoshdan tashqari mukofot

tarqatgan. 80 xonada istiqomat qilib tahsil olayotgan talabalar oarsidagi eng zukko qobiliyatli va nihoyatda fanlarni kuchli o'zlashtirganlari har yili **312 tilla tanga bilan taqdirlangan**. Demak, Ulug'bek ilm maskanlaridagi ilmiy xodimlarni ham, talabalarni ham iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga intilgan. Ulug'bek o'zining "Zijdi jadidi Ko'ragoniy" asarida: **"Biz dunyoni bilish, uning sirlarini ochish, ularni kishilarga xizmat qildirish uchun yashamoqdamiz"** deb yozgan. "Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim. Yurtimizda "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida islohotlar poydevoriga tamal toshi qo'yilib, ushbu yondashuvni hayotimizda bosh qadriyatga aylantirish vazifasi dolzarb hisoblanadi.

Shubhasiz, yangilanayotgan O'zbekiston barqaror iqtisodiyot, erkin va farovon hayotga ega, jahonda hurmat-e'tibor qozongan, o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanib borayotgan mamlakat yoshlarining har tomonlama bilimga, aql-idrokka, mustahkam iroda va yuksak tafakkurga ega bo'lib borishi ta'lim – tarbiya jarayonlaridagi mashg'ulotlarning sifatli tashkil etilishiga, unda zamonaviy yondashuvlarga asoslanilgan shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, biz ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muhimligidan kelib chiqib, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalariga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlash, darslarda Sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik ta'limoti, merosi va mazmunidan samarali foydalanish zarurligini e'tirof etamiz.

Adabiyotlar

1. Avesto. // San'at.1991. №3. Asqad Muxtor tarjimasi. Axuramazda qasidasi.8-bet.Gimn Axura-Mazde.Yasht.1. "Ormazd-yasht". V kn.:Avesta.Dushanbe. Adib.1990.S.12
2. Salomova H. Y. Jaloliddin Rumiy: Inson falsafasi to'g'risida. Monografiya.Buxoro."Durdona" nashriyoti.2022.112-bet.
3. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. СПб.1843.с.86.
4. Mirzo Ulug'bek. "Ziji jadidi Ko'ragoniy".V.36 a.
5. S.Muxiddinov, /Inson qadri ulug'langan yurt, o'zgarishlar ostonasida/2022yil, 3-avgust